

QIYOSLASH MUNOSABATIDAGI GAPLARNING SINTAKTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

Dadabayeva Shirin

(FarDU katta o‘qituvchisi)

Annotatsiya. Ushbu maqolada sintaktik-stilistik vositalardan biri takror va uning turlari qiyoslash mazmunidagi qo'shma gaplarda qiyoslash yoki zidlash ma'nosini kuchaytirishda foydalanishi turli misollar va tahlillar asosida ko'rsatilgan.

Abstract. In this article, repetition as a syntactic-stylistic tool and its types are demonstrated through various examples and analyses to enhance the meaning of comparison or contrast in compound sentences that convey comparative content.

Аннотация. В данной статье показано использование повторения как синтаксико-стилистического средства, а также его типов на примерах и анализах для усиления значения сравнения или противопоставления в сложных предложениях, содержащих сравнительный контент.

Kalit so'zlar: sintaktik-stilistik vositalar, takror, anaforik takror, epiforik takror, inforik takror, aralash takror.

Keywords: syntactic-stylistic tools, repetition, anaphoric repetition, epiphoric repetition, inforic repetition, mixed repetition.

Ключевые слова: синтаксико-стилистические средства, повторение, анафорическое повторение, эпифорическое повторение, инфорическое повторение, смешанное повторение.

Inson kundalik hayotda obyektiv voqelikka o'zining subyektiv munosabatini bildirganda, o'z nutqida ekspressiv-emotsional xususiyatlarni shakllantiruvchi stilistik vositalardan foydalanadi. Xususan, qo'shma gaplarda ular o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Stilistik vositalar nutqning ekspressiv-emotsional tarzda ifodalanishiga yordam beruvchi vositalar bo'lib, zamonaviy tilshunoslikda ular quyidagi guruhlarga ajratilgan[3;23]:

1. Fonetik- stilistik vositalar.
2. Leksik- stilistik vositalar.

3. Sintaktik- stilistik vositalar.

Sintaktik birliklarning ekspressiv funksiyasini bajarishda sintaktik-stilistik vositalardan foydalaniladi. Sintaktik-stilistik vositalar deganda “badiiy tasvirda ifodalilik hosil qiluvchi va ma’lum bir stilistik funksiyani bajaruvchi intonatsion – sintaktik vositalar, usullardir”[1;16].

O‘zbek tilshunosligida dastlab tilshunos olimlar tomonidan sintaktik- stilistik vositalar haqida umumiy fikr yuritilgan. Ammo prof A.Mamajonov ulardan farqli o‘laroq ushbu vositalarni qo‘shma gap turlari misolida to‘liq va aniq lisoniy dalillar asosida tahlil etgan[4;267]. Hozirda olim olib borgan tadqiqotlar stilistikaning asosiy manbasi sifatida ilmiy tadqiqotchilar tomonidan foydalanib kelinmoqda.

Yuqoridagi manbalarga tayangan holda, turli tillar misolida qiyoslash munosabatini ifodalashda ishtirok etuvchi sintaktik-stilistik vositalardan biri sifatida takror vositasini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Takror – “til birliklarining takrorlanishi bo‘lib, u “fonetik takror ((tovushlarning takrorlanishi), “leksik-morfologik takror” (so‘z va qo‘shimchalarning takrorlanishi), “sintaktik takror” (so‘z birikmasi va gap takrorlanishi) kabi ko‘rinishlarga ega”[2;375]. Xususan, sintaktik takrorning *gap bo‘laklarining takrorlanishi – bo‘lakli takror, so‘z birikmalarining takrorlanishi – birikmali takror, gapning takrorlanishi – predikativ takror* kabi turlari mavjud.

O‘zbek tilida qiyoslash munosabatini yuzaga chiqarishda takrorning uch turdagi ko‘rinishi faol ishtirok etadi va ushbu stilistik vositadan umumiy holda shaxsni shaxsga qiyoslaganda, bir narsa-buyumning ikki holati solishtirilganda, bir xarakter-holatni boshqa-bir xarakter-holatdan ustun qo‘yilganda hamda qiyoslash mazmunini yanada kuchaytirishda foydalaniladi:

- a) bo‘lakli takror:
- b) birikmali takror:
- c) predikativ takror:

Sintaktik - stilistik vositalarga kiruvchi takror egallagan o‘rniga ko‘ra, quyidagi turlarga bo‘linadi va ularni biz qiyoslash munosabatini ifodalovchi qo‘shma gaplar misolida ko‘rib chiqamiz:

1. Anaforik takror. Takrorlanayotgan bo‘lakning gap boshida kelishi:

Tili uzun xashak yer,

Tili kalta yashab yer.(Maqol) Bu yerda bir narsaning ikki holati (*tili uzun va tili kalta*) solishtirilmoqda.

2. Epiforik takror. Takrorlanayotgan bo‘lakning gap oxirida kelishi:

Eshitgandan ko‘rgan yaxshi,

O‘zim ko‘rib bilgan yaxshi.(Maqol) Bunda eshitish xarakatidan ko‘rish xarakati ustun qo‘yilmoqda.

3. Inforik takror. Takrorlanayotgan bo‘lakning gap o‘rtasida kelishi:

Ko‘rgan kishi o‘tkarur zabona,

Kuygan kishi ko‘rgazur nishona.(A.Navoiy)Ushbu misolda shaxslar qiyoslanmoqda.

Aralash(doiraviy) takror. Takror turlarining bir vaqtda aralash qo‘llanishi:

Kelining yaxshi bo‘lsa, berdi Xudo,

Kelining yomon bo‘lsa, urdi Xudo.(Maqol) – ushbu misolda anaforik va epiforik takror birga qo‘llangan va doiraviy takror ko‘rinishi xosil qilingan hamda bu yerda shaxslar qiyoslanmoqda.

Ingliz tilida takror usuli, asosan, qo‘shma gaplarda kuzatiladi. Lekin o‘zbek tilidan farqli o‘laroq, ushbu tilda nafaqat shakliga va joylashuviga ko‘ra , balki takrorlanayotgan bo‘lakning ma’nosiga ham e’tibor qaratiladi.

Ingliz tilida qiyoslash munosabatini yuzaga chiqaruvchi ushbu uslubdan o‘zbek tili kabi, asosan, xalq og‘zaki ijodida, she’riyatda qo‘llaniladi. Masalan,

I’ve known rivers:

I’ve known rivers ancient as the world and

older than the flow of human blood in

human veins. (Langston Hughes “The Negro Speaks of Rivers”)

Ushbu misol qiyoslash mazmunidagi gap bo‘lib, unda insondagi qon oqishidan daryolar haqidagi ma’lumotni ko‘proq bilishi kabi holatlar solishtirilgan hamda takrorning anaforik va takror bo‘laklarning bir matnda turli joyda joylashuvi kabi turlari qo‘llanilgan.

Better the devil you know than the devil you don't. (Proverb)

Ushbu misolda takror bo‘laklar gap o‘rtasida –*mesodiplosis* holatda kelgan va takror bo‘laklar o‘zaro zid ma’noda- antistasis holatida qo‘llanilib, *the devil* so‘zlari orqali shaxslar qiyoslangan.

Xulosa qilib aytganda, Qiyoslash munosabatini ifodalovchi gaplarning shakllanishida, undagi ekspressivlik xususiyatini oshirishda sintaktik-stilistik vositalarning ham o‘rni katta. Xususan, *takror* kabi sintaktik stilistik vosita qiyoslash munosabatini ifodalovchi gaplar tarkibida kelib, undagi kontrast mazmunini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamajonov A. Qo‘shma gap stilistikasi. – Toshkent: Fan, 1990. – B.16.
2. Galperin I.R. Stylistic. – Moscow: Higher school, 1977. – 335 p.; Wellek R, Warren A. Theory of literature. – New york: Harvest book, 1956. – 375 p
3. Kuharenko V.A. Seminars in style. – Moscow, 1971. – 23p.
4. Mamajonov A. O‘zbek tili qo‘shma gaplarining xususiyatlari: Dok.diss. – Toshkent, 1991. – B. 267.
5. Dadabaeva, S. (2020, December). COMPARISON APPROACH AND ITS EXPRESSOR LANGUAGE TOOLS. In *Конференции*.
6. Dadabaeva, S. (2021). COMPARATIVE RELATIONS AND THEIR UNIVERSAL FEATURES. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 25-25.
7. SH, D. S. (2023). Comparative Compound Sentence. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(6), 257-260.

8. Дадабаева, Ш., & Аҳмедова, М. (2023). ҚИЁСИЙ СОДДА ГАПЛАРДА ШАКЛ ВА МАЗМУН МАСАЛАСИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(5), 57-60.
9. Dadabayeva, S. (2023). Comparative Lexico-Morphological Means in Languages. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 19, 63-68.
10. Дадабаева, Ш. (2021). ҚИЁСЛАШ МАЗМУНИНИНГ СОДДА ГАПЛАР ДОИРАСИДА ИФОДАЛАНИШИ. *Scientific journal of the Fergana State University*, (4), 45-45.